



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**FARZANDLARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH JARAYONIDA MUZEY
MANBALARINING O'RNI**

Ne'matov Muhammadaziz No'mon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti

Tarix ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Telefon: +998908558179

Email: muhammedaziz6778@gmail.com

Telegram: @tarixchili +998908558179

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada farzand tarbiyasida muzeylar va muzey manbalarining o'rni, milliy tarbiya metodini shakllantirish jarayonida muzey ekskursiyalari va muzey pedagogikasining ahamiyati kabi mavzular yuzasidan mulohaza yuritiladi. Ushbu yondashuvlar asosida farzandlarning barkamol shaxs sifatida voyaga yetishiga e'tibor qaratadi.*

Kalit so'zlar: *milliy tarbiya modeli, muzey, muzey manbalari, interaktiv uslublar, muzey ekskursiyalari, muzey pedagogikasi.*

KIRISH

Bugungi kunda farzandlarning ta'lim-tarbiya jarayonlari favqulotda muhim, dolzarb mavzulardan biridir. Ularni bugungi shiddatli davr muhitida turli hil g'arazli g'oyalar va tahdidlardan muhofaza qilgan holatda yetuk shaxs sifatida tarbiyalash barchamizning oldimizda turgan mushtarak vazifamizdir. Bunday ahamiyatli ishda qadim ajdodlarning boy madaniy hamda axloqiy meroslarini zamonaviy interaktiv uslublar bilan uzviy bog'lagan holda milliy tarbiya metodini ishlab chiqshimish zarur. Ushbu jarayonda muzey va muzey manbalaridan foydalanish eng samarali mexanizmlardan biri ekani shubhasizdir.

Muzeylar — har bir xalqning tarixiy xotirasi, moddiy va nomoddiy madaniy merosining aksidir. Bugungi globallashuv davrida muzeylar nafaqat tarixiy ma'lumotlarni saqlovchi markaz, balki ijtimoiy-ma'naviy va ta'limiy institut sifatida ham faoliyat yuritmoqda.

Zamonaviy jamiyatda farzandlarni har tomonlama yetuk, madaniyatli va vatanparvar etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonda ta'lim muassasalari bilan bir qatorda muzeylar va muzey manbalarining ham roli katta. Ular nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlovchi maskan, balki bolalar ongini shakllantiruvchi, ularning estetik dunyoqarashini rivojlantiruvchi muhim tarbiya o'choqlaridan biridir.

Muzey bolalarning kuzatuvchanligini oshirib, tasavvurni kengaytirish va ma'lum ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, bolalar muzey ahamiyatiga



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



molik ashyolarni bog'chada, ko'chada, tanishlarning uyida yoki tashqi muhitda ko'ra olish, shuningdek, muzeyda o'zini tutish, ko'rgazmada ashyolarni ko'rish kabi madaniy meros bilan muloqotga kirishish kabi ko'nikmalarga ega bo'lib borishadi. Natijada, bolalar muzeylarga madaniyatning noyob muassasasi sifatida qiziqqa boshlashadi. Asosiysi, yo'qolib borayotgan madaniyat, an'analar va ularning ahamiyati bolalarda alohida qadr-qimmat kasb etadi. Muzey xazinasini ularga bebaho va noyob tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Muzeylar bolalarga noan'anaviy bilim manbai sifatida xizmat qiladi. Bu joylarda o'tkaziladigan tematik ekskursiyalar, interaktiv darslar va ko'rgazmalar orqali bolalar mustaqil fikrlash, tahlil qilish, savol berish va javob topish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Muzeylarda ko'rsatiladigan tarixiy voqealar, qahramonlar hayoti, milliy urf-odatlar va qadriyatlar bolalarga ezgulik, halollik, sadoqat, sabr-toqat kabi axloqiy fazilatlarni singdiradi. Bu esa ularning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Muzey pedagogikasi - pedagogika, psixologiya va muzeyshunoslikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan yo'nalishi hisoblanib, u dastlab tushuncha sifatida XX asr boshlarida Germaniyada shakllangan hamda ilmiy muomalaga kiritilgan. Muzey pedagogikasining hayotga tatbiq etilishi A. Lixtvark, A.Reyxven va G.Froydental nomlari bilan bog'liq. Avvaliga bu soha o'quvchilar bilan ishlashga mo'ljallangan muzey faoliyatining bir yo'nalishi sifatida talqin etildi. 1913-yilda A.Lixtvark birinchi marta muzeyning ma'rifiy maskan sifatidagi ahamiyati g'oyasini shakllantirdi va tashrif buyuruvchi bilan muloqotda yangi usullarni taklif etdi. Muzeylarda maktab tizimidagi mashg'ulotlarni o'tish metodikasi ilk bor G.Froydental tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, u muzey muhitida ta'lim jarayonini tashkil etish uchun pedagogning zarurligini ta'kidlab, ushbu mutaxassisga "muzey pedagogi" nomi berilishini taklif qildi. Jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sirni kuchaytirish uchun muzey bilan maktabni birlashtirgan G.Kol "Muzey va galereyalar o'z oldiga ta'lim maqsadini qo'ymas ekan, ular zerikarli hamda foydasiz muassasa bo'lib qolaveradi", degan xulosaga keladi. G.Kolning bu fikri muzeylarning ta'lim faoliyati modelini shakllantirishni taqozo etdi.

Shunday qilib, farzandlarga bugungi zamon bilan hamnafas holda ta'lim-tarbiya berish, ularda milliy vatanparvarlik ruhini shakllantirishda qadim ajdodlarning boy merosini o'zida jamlagan muzey va muzey manbalarining o'rni beqiyosdir. Muzeylar nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlovchi, balki farzandlar tarbiyasida muhim ta'lim va tarbiya manbai sifatida ham xizmat qiladi. Ekskursiyalar mustaqil fikrlash, estetik tafakkur va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantiradi. O'yin, interaktiv usullar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash esa ekskursiyalarni yanada samarali va qiziqarli qiladi. Jahon tajribasi asosida muzey manbalarimizning milliy tarbiya metodidagi roli ortib borayotgani bugungi kunda ularning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavrulov A.A, Saidboboyev Z.A. Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘llanma. / O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. - T.: “Turon-Iqbol”, 2018.-260 b.
2. Ismailova J.X., Nishanova K.S., Muxamedova M.S. Muzei va jamiyat. – T.: Chinor ЭНК, 2015. – 176 b
3. Ismoilova J. Muzei pedagogikasining taraqqiyoti va tajribalari. Muzeyshunoslik o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent, “Turon-Iqbol” 2018. 79-b
4. Делибалтова В.К, Бактыбаев Ж.Ш. Вестник КазНУ. Серия «Педагогические науки». №1 (41). 2014